

e-ISSN 3060-5059

DOI: 10.67227



IJTIMOYIY-GUMANITAR SOHADA ILMIY-INNOVATSION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNAL

Scientific and Innovative Research in
Social and Humanitarian Studies

Vol. 3 • Issue 7

2026



Founded in 2024



publishscience.uz



publish_science_journal@mail.ru



PEER REVIEWED • OPEN ACCESS

O'ZBEK VA INGLIZ TILIDAGI ILMIY MATNLARDAGI EKSPRESSIVLIKNING QIYOSIY TAHLILI

Xudoyberdiyeva Nargiza Tolibjon qizi

Samarqand davlat chet tillar instituti, mustaqil izlanuvchi.

e-mail: xudoyberdiyevan571@gmail.com .ORCID: <https://orcid.org/0009-0000-0476-5375>

Annotatsiya.

Mazkur maqolada o'zbek va ingliz tillaridagi ilmiy matnlarda ekspressivlikning namoyon bo'lish xususiyatlari tahlil qilinadi. Ilmiy nutqda ekspressivlikning leksik, sintaktik va modal vositalari orqali ifodalanishi hamda ularning matn mazmuni va ta'sirchanligini oshirishdagi o'rni yoritiladi. Shuningdek, ikki til ilmiy uslubidagi o'xshash va farqli jihatlar qiyosiy tahlil asosida ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari ilmiy matnlarning kommunikativ samaradorligini ta'minlashda ekspressiv vositalarning muhimligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: ekspressivlik, ilmiy matn, ilmiy uslub, qiyosiy tahlil, leksik vositalar, sintaktik vositalar, modal birliklar.

СРАВНИТЕЛЬНЫЙ АНАЛИЗ ЭКСПРЕССИВНОСТИ В НАУЧНЫХ ТЕКСТАХ НА УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Худойбердиева Наргиза Тolibжон кизи

Самаркандский государственный институт иностранных языков, независимый исследователь.

Аннотация.

В данной статье анализируются проявления экспрессивности в научных текстах на узбекском и английском языках. Рассматриваются лексические, синтаксические и модальные средства выражения экспрессивности, а также их роль в повышении информативности и воздействия научного текста. Особое внимание уделяется сопоставительному анализу сходств и различий научного стиля в двух языках. Результаты исследования показывают значимость экспрессивных средств для обеспечения коммуникативной эффективности научных текстов.

Ключевые слова: экспрессивность, научный текст, научный стиль, сравнительный анализ, лексические средства, синтаксические средства, модальные средства.

A COMPARATIVE ANALYSIS OF EXPRESSIVENESS IN SCIENTIFIC TEXTS IN THE UZBEK AND ENGLISH LANGUAGES

Xudoyberdiyeva Nargiza Tolibjon qizi

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Independent Researcher.

Abstract.

This article analyzes the manifestations of expressiveness in scientific texts in Uzbek and English. It examines how lexical, syntactic, and modal means contribute to the expression of expressiveness in academic discourse and their role in enhancing the clarity and impact of scientific communication. The study also provides a comparative analysis of similarities and differences between the two languages in terms of scientific style. The findings highlight the importance of expressive devices in ensuring the communicative effectiveness of scientific texts.

Keywords: expressiveness, scientific text, academic style, comparative analysis, lexical means, syntactic means, modal units.

Kirish. Zamonaviy tilshunoslikda ilmiy nutqda ifodalilikni o'rganishga tobora ko'proq e'tibor qaratilmoqda, chunki akademik matnlar endi mutlaqo neytral va obyektiv deb qaralmaydi. Ilmiy yozuvning asosiy maqsadi aniq va faktlarga asoslangan ma'lumotlarni yetkazish bo'lsa-da, tadqiqotchilar ifodalilik elementlari ma'no shakllanishida, talqinni yo'naltirishda hamda matnning kommunikativ samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynashini ko'rsatib

berishgan. Ilmiy nutqda ifodalilik odatda leksik tanlovlar, sintaktik tuzilmalar va modal vositalar orqali namoyon bo'ladi. Bu esa mualliflarga asosiy fikrlarni ta'kidlash, baho berish va o'z da'volarining ishonchlik darajasini boshqarish imkonini beradi.

O'zbek va ingliz tillarida ham ilmiy matnlar ifodalilik xususiyatlariga ega, biroq ularning namoyon bo'lish darajasi va shakllari til hamda madaniy omillar sababli farq qilishi mumkin. Ingliz tilidagi akademik yozuv odatda yuqori darajada standartlashgan bo'lib, unda ifodalilik ko'proq yashirin tarzda — ehtiyotkor ifodalash (*hedging*), nominalizatsiya va puxta tanlangan baholovchi birliklar orqali beriladi. Aksincha, o'zbek ilmiy nutqida ifodalilik nisbatan ochiqroq shaklda namoyon bo'lishi mumkin. Bunda to'g'ridan to'g'ri baholovchi ifodalar va sintaktik urg'u vositalari orqali tadqiqot natijalarining ahamiyati hamda dolzarbligi ta'kidlanadi.

Ushbu sohada qiziqish ortib borayotganiga qaramay, aynan o'zbek va ingliz ilmiy matnlarida ifodalilikni qiyosiy o'rganishga bag'ishlangan tadqiqotlar hali ham yetarli emas. Shu bois, mazkur tadqiqot har ikki tilda ifodalilikning namoyon bo'lishi va turlarini tahlil qilish, shuningdek, ularning o'xshash va farqli jihatlari qiyosiy asosda aniqlashni maqsad qiladi. Tadqiqot quyidagi savollarga javob topishga qaratilgan: (1) o'zbek va ingliz ilmiy matnlarida ifodalilikni ifodalovchi qanday lingvistik vositalar qo'llaniladi? (2) Bu vositalar ikki til o'rtasida qanday farqlanadi? (3) Ifodalilik ilmiy nutqning kommunikativ samaradorligini oshirishda qanday rol o'ynaydi?

Tadqiqot natijalari qiyosiy tilshunoslik, diskurs tahlili va akademik yozuv tadqiqotlarining rivojlanishiga hissa qo'shishi, shuningdek, o'zbek va ingliz tillarida ilmiy matnlar yaratish bilan shug'ullanuvchi tadqiqotchilar, tarjimonlar hamda talabalar uchun amaliy ahamiyat kasb etishi kutilmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI

A. Hojiyevning **"Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati"** da **ekspressiya** terminiga shunday ta'rif berilgan: *Ekspressiya* (lot. *expressio* — ifoda). Nutqning ta'sirchanligini oshirib, bu xususiyat leksik, grammatik va boshqa vositalar yordamida yuzaga keladi [132].

David Crystalning **"Dictionary of Linguistics and Phonetics"** lug'atida ushbu tushuncha quyidagicha ta'riflanadi:

"Ekspressiya" (ifoda) atamasi tilshunoslikda umumiy ma'noda qo'llanilib, tahlil va muhokama maqsadida yagona birlik sifatida qaraladigan elementlar ketma-ketligini anglatadi. Ifodalar grammatik hamda leksik xususiyatga ega bo'lib, har ikkala jihat asosida aniqlanishi mumkin. Masalan, "so be it" ifodasi shakliy (grammatik sinflar) va leksik birliklar ketma-ketligi sifatida tahlil qilinishi mumkin.

Shuningdek, ifodalar semantik xususiyatlari nuqtayi nazaridan ham o'rganiladi. Bu holat falsafiy va mantiqiy tadqiqotlarda ("referensial" va "predikativ ifoda" kabi tushunchalar orqali) keng qo'llaniladi hamda zamonaviy tilshunoslikda ham tobora muhim ahamiyat kasb etib bormoqda.

Sh. Safarovning **"Tilshunoslik terminlari lug'ati"** da **ekspressivlik** atamasiga quyidagicha izoh berilgan: ma'noning ifodali, yorqin ko'rinishga ega bo'lishi. Ekspressiv ma'no emotsional mundarijaga va stilistik bo'yoqqa ega bo'ladi hamda tavsifiy yoki ijtimoiy ma'nosiga ko'ra farqlanadi. Ekspressivlikda so'zlovchining dunyoqarashi, uning obrazli tafakkuri, tasavvuri va hissiyotlari namoyon bo'ladi.

Ifodalilik go'zallik kategoriyasi bilan chambarchas bog'liq bo'lib, nutqning estetik xususiyati sifatida namoyon bo'ladi. N. Nepiyvoda ta'kidlashicha, an'anaviy ravishda ilmiy uslub hissiyotlardan xoli, ayniqsa, ilmiy-texnik matnlar obyektiv deb qaralganligi sababli, estetik talablar unga tatbiq etilmasligi kerakdek tuyuladi. Biroq go'zallik tushunchasi faqat badiiy asarlar bilan cheklanmaydi. Ilmiy asar ham go'zal bo'lishi mumkin — u intellektual go'zallik, ya'ni aniqlik, mantiqiylik va nafislik orqali namoyon bo'ladi.

TADDIQOT METODLARI

"Recent studies in applied linguistics suggest that academic writing is not entirely neutral, as researchers often employ hedging strategies to present claims with appropriate caution. Such strategies include modal verbs, tentative verbs, and adverbial expressions that reduce categorical assertion. This allows authors to maintain scientific objectivity while still guiding the reader's interpretation of findings." [170]

"Zamonaviy tilshunoslik tadqiqotlarida ilmiy matnlar mutlaq neytral deb qaralmasligi ta'kidlanadi, chunki mualliflar o'z fikrlarini ifodalashda turli lingvistik vositalardan foydalanadilar. Xususan, baholovchi birliklar va urg'u beruvchi sintaktik tuzilmalar orqali tadqiqot natijalarining ahamiyati ko'rsatib beriladi, bu esa matnning ta'sirchanligini oshiradi." [170]

Ushbu ikki til materialini qiyosiy tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ingliz ilmiy matnida ekspressivlik asosan yashirin, ya'ni bilvosita vositalar orqali namoyon bo'ladi. Unda *hedging* (ehtiyotkor ifoda), modal fe'llar va neytrallikni saqlovchi leksik birliklar orqali muallif o'z pozitsiyasini yumshatib, ilmiy obyektivlikni kuchaytiradi. Bu yondashuv ilmiy diskursda aniqlikdan ko'ra ehtiyotkorlik va ehtimollikni ustun qo'yadi, natijada ekspressivlik "yumshatilgan" shaklda, ya'ni implitsit tarzda ifodalanadi.

O'zbek ilmiy uslubida esa ekspressivlik nisbatan ochiqroq va bevosita ko'rinadi. Mualliflar ko'pincha baholovchi so'zlar, urg'u beruvchi sintaktik konstruksiyalar va to'g'ridan to'g'ri ifodalar orqali fikrning muhimligini ta'kidlaydilar. Bu esa matnning kommunikativ ta'sirini kuchaytiradi va o'quvchiga natijaning ahamiyatini aniqroq yetkazadi. Shunday qilib, o'zbek ilmiy nutqida ekspressivlik ko'proq eksplisit xarakterga ega bo'lib, u ilmiy fikrning ta'sirchanligini oshirishga xizmat qiladi.

Qiyosiy jihatdan qaralganda, har ikkala til ilmiy uslubida ekspressivlik mavjud, biroq uning realizatsiya usullari farqlanadi: ingliz tilida u implitsit va ehtiyotkor shaklda, o'zbek tilida esa ko'proq ochiq va ta'kidlovchi shaklda namoyon bo'ladi. Shu bilan birga, ikkala tizimda ham ekspressivlik ilmiy matnning kommunikativ samaradorligini oshirish, muallif pozitsiyasini boshqarish va o'quvchi interpretatsiyasini yo'naltirish vazifasini bajaradi.

Nazariy jihatdan bu xulosalar *Academic Writing for Graduate Students* tomonidan bayon etilgan akademik yozuv tamoyillariga ham mos keladi, chunki unda ilmiy nutqda ehtiyohtkorlik, baholash va muallif pozitsiyasi muhim diskursiv vositalar sifatida ko'rsatiladi.

NATIJALAR

Ingliz tilida ekspressivlik deganda asosiy e'tibor mantiqiy tushunchaga qaratiladi. Bunda maxsus ifodalovchi terminlar mavjud bo'lib, ular asosan ilmiy matnlarda qo'llaniladi va ko'proq modal so'zlar, umumlashgan gaplar hamda kiritmalar yordamida ifodalanadi.

O'zbek tilshunosligida esa ekspressivlik asosan ma'noning ifodalanishi bilan bog'liq bo'lib, bunda so'zlovchining dunyoqarashi muhim rol o'ynaydi hamda nutqning ta'sirchanligini oshiradi. U grammatik va leksik vositalar yordamida yuzaga keladi, maxsus terminlar asosida emas.

A. Hojiyev va David Crystal tomonidan berilgan ta'riflar asosida olib borilgan tahlil tilshunoslik nazariyasida ifodalilik tushunchasiga oid o'xshash va farqli yondashuvlarni aniqladi.

Avvalo, natijalar shuni ko'rsatadiki, ifodalilik doimiy ravishda kommunikativ ta'sirni kuchaytirish bilan bog'liq holda talqin etiladi. Hojiyev talqinida ifodalilik asosan funksional kategoriya sifatida qaralib, nutq ta'sirchanligini oshiruvchi leksik, grammatik va boshqa til vositalari orqali yuzaga chiqadi. Bu esa pragmatik yondashuvni aks ettiradi, ya'ni asosiy e'tibor nutqning tinglovchi yoki o'quvchiga qanday ta'sir ko'rsatishiga qaratiladi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Crystal ta'rifida "ifoda" tushunchasi ko'proq strukturaviy va tahliliy nuqtayi nazardan izohlanadi. U tahlil va muhokama maqsadida yagona birlik sifatida qaraladigan elementlar ketma-ketligi sifatida talqin qilinadi. Bunday ifodalar grammatik va leksik xususiyatlarga ega bo'lib, har ikkala jihat asosida aniqlanishi mumkin. Masalan, "so be it" — "shunaqa bo'la qolsin" ifodasi shakliyl sinflar va leksik birliklar ketma-ketligi sifatida tahlil qilinadi. Natijalar shuni ko'rsatadiki, bu yondashuvda ifodalilik faqat uslubiy kuchaytirish bilan cheklanmay, balki semantik xususiyatlar, jumladan, referensial va predikativ funksiyalar orqali ham o'rganiladi.

Shuningdek, qiyosiy tahlil ifodalilikning bir necha darajada namoyon bo'lishini ko'rsatdi:

(1) formal daraja — ifodalar tahlil qilinadigan lingvistik birliklar sifatida tuziladi;

(2) semantik daraja — ma'no shakllanadi va talqin qilinadi;

(3) pragmatik daraja — kommunikativ ta'sir va urg'u yuzaga chiqadi.

Yana bir muhim natija shundan iboratki, har ikkala yondashuv ham ifodalilik faqat emotsional yoki uslubiy rang berish bilan cheklanmasligini, balki tilning ichki xususiyati sifatida aniqlik, ravshanlik va talqin etish imkoniyatini ta'minlashda muhim rol o'ynashini ko'rsatadi, ayniqsa, ilmiy nutqda.

Umuman olganda, natijalar ifodalilikni strukturaviy, semantik va funksional jihatlarni o'zida mujassam etgan ko'p qirrali hodisa sifatida talqin qilish zarurligini ko'rsatadi. Bu esa uning tilshunoslik nazariyasi va amaliyotida kommunikativ samaradorlikni oshirishdagi ahamiyatini tasdiqlaydi.

MUHOKAMA

A. Hojiyev, David Crystal, *Routledge Dictionary of Language and Linguistics* hamda Sh. Safarov tomonidan berilgan ta'riflarni tahlil qilish shuni ko'rsatadiki, ifodalilik tushunchasi ko'p qatlamli lingvistik hodisa bo'lib, uni yagona talqin bilan cheklab bo'lmaydi. Turli nazariy yondashuvlarda ifodalilik asosan ma'noning kuchayishi, kommunikativ ta'sirning oshishi va interpretativ chuqurlikni ta'minlash bilan bog'liq holda qaraladi, biroq har bir ta'rifda uning alohida jihatlarga urg'u beriladi.

Avvalo, Hojiyev talqinida ifodalilik nutq ta'sirchanligini leksik va grammatik vositalar orqali kuchaytiruvchi funksional kategoriya sifatida izohlanadi. Bu yondashuv tilga pragmatik nuqtayi nazardan yondashishni aks ettiradi, ya'ni ifodalilik kommunikativ samaradorlikni oshirishga xizmat qiladi. Shuningdek, Safarov ifodalilikni yanada kengroq talqin qilib, unda emotsional bo'yoqdorlik, uslubiy noziklik hamda so'zlovchining dunyoqarashi va tasavvur olamining aks etishini ta'kidlaydi. Bu esa ifodalilikning nafaqat lingvistik shakl, balki kognitiv va psixolingvistik jihatlarga ham ega ekanligini ko'rsatadi.

Bunga qarama-qarshi ravishda, Crystal hamda *Routledge Dictionary of Language and Linguistics* manbalarida "ifoda" tushunchasi ko'proq strukturaviy va semiotik nuqtayi nazardan talqin qilinadi. Ushbu yondashuvga ko'ra, ifoda til tizimiga (langue) mansub bo'lgan va nutqiy amalga oshishdan mustaqil tahlil qilinadigan lingvistik birlik sifatida qaraladi. Bu nuqtayi nazardan ifodalilik emotsional yoki uslubiy boyitishdan ko'ra, lingvistik birliklarning strukturaviy tashkil etilishi hamda ularning semantik xususiyatlari bilan bog'liq holda o'rganiladi.

Ushbu yondashuvlarning qiyosiy tahlili muhim farqni ko'rsatadi: o'zbek tilshunoslik an'anasida (Hojiyev va Safarov) ifodalilik ko'proq emotsionallik, uslubiy bo'yoq va kognitiv obrazlilik bilan bog'liq holda qaralsa, ingliz tilshunoslik manbalarida (Crystal va *Routledge Dictionary of Language and Linguistics*) u strukturaviy, semantik va analitik jihatlarga urg'u berilgan holda izohlanadi. Bu farq tilshunoslikdagi metodologik yo'nalishlar bilan bog'liq bo'lib, birida funksional-pragmatik va kognitiv yondashuv ustun bo'lsa, boshqasida formal va strukturaviy tahlil yetakchilik qiladi.

Shunga qaramay, barcha manbalar bir umumiy jihatda kelishadi: ifodalilik ma'noning kuchayishiga xizmat qiladi va lingvistik xabarni talqin qilish jarayoniga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Hatto an'anaviy ravishda obyektiv va neytral deb hisoblangan ilmiy nutqda ham ifodalilik yashirin shaklda namoyon bo'ladi. N. Nepiyvoda ta'kidlaganidek, ilmiy yozuvda ham intellektual go'zallik, aniqlik va nafislik kabi estetik sifatlar mavjud bo'lishi mumkin. Bu esa ilmiy tilning mutlaqo ifodasiz bo'lishi haqidagi an'anaviy qarashlarni shubha ostiga qo'yadi.

XULOSA

Mazkur tadqiqotda ifodalilik tushunchasining turli lingvistik manbalardagi talqini hamda uning o'zbek va ingliz

tilshunoslik an'alaridagi o'rni tahlil qilindi. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, ifodalilik ko'p qirrali lingvistik hodisa bo'lib, u leksik, grammatik, semantik va pragmatik darajalarda namoyon bo'ladi hamda nutqning kommunikativ samaradorligini oshirishda muhim rol o'ynaydi.

Tahlil jarayonida o'zbek tilshunoslik manbalarida ifodalilik ko'proq emotsional bo'yoqdorlik, uslubiy ta'sirchanlik va so'zlovchining kognitiv dunyoqarashi bilan bog'liq holda talqin etilishi aniqlandi. Ingliz tilshunoslik an'alarida esa u ko'proq strukturaviy va semantik birlik sifatida qaralib, lingvistik tizim doirasida tahlil qilinadi. Bu esa har ikki ilmiy an'anada metodologik yondashuvlarning turlicha ekanligini ko'rsatadi.

Shunga qaramay, har ikki yondashuvning umumiy jihati shundan iboratki, ifodalilik til birliklarining ma'nosini kuchaytiradi va ularning talqin qilinishiga ta'sir ko'rsatadi. Hatto ilmiy nutq, odatda, obyektiv va neytral deb qaralishiga qaramay, unda ham ifodalilikning yashirin shakllari mavjudligi aniqlandi. Bu holat ilmiy tilning faqat informativ emas, balki estetik va intellektual jihatdan ham boy ekanligini tasdiqlaydi.

Umuman olganda, ifodalilikni tilshunoslikda ko'p darajali va ko'p funksiyali hodisa sifatida o'rganish zarurligi ta'kidlanadi. Kelgusidagi tadqiqotlarda uning kognitiv, pragmatik va madaniy jihatlarini yanada chuqurroq o'rganish muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Hojiyev A. *Tilshunoslik terminlarining izohli lug'ati*. – Toshkent: O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi nashriyoti. – B. 158.
2. Bakhramova Z. R. The Relationship Between the Categories of Emotionality and Expressivity in English and Uzbek Languages // *EduVision: Journal of Innovations in Pedagogy and Educational Advancements*. – 2025. – Vol. 1. – Issue 5. – P. 1033.
3. Crystal D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. 6th ed. – Oxford: Blackwell Publishing, 2008.
4. Crystal D. *A Dictionary of Linguistics and Phonetics*. – Oxford: Blackwell Publishing, 2008. – P. 555.
5. Bussmann H. *Routledge Dictionary of Language and Linguistics*. – London: Routledge, 2006. – P. 1335.
6. Кожина М. Н. К проблеме экспрессивности научной речи // *Учёные записки Пермского университета*. – 1971. – № 244. – Вып. 3. – С. 25–41.
7. Nepiyvoda N. Aesthetic Features of Scientific Style in Linguistic Discourse // *Journal article*. – P. 303.
8. *Routledge Dictionary of Language and Linguistics*. – London: Routledge, 2006.
9. Swales J. M., Feak C. B. *Academic Writing for Graduate Students*. – Ann Arbor: University of Michigan Press, 2012.
10. Safarov Sh. *Tilshunoslik terminlari lug'ati*. – Toshkent: Lesson Press nashriyoti, 2023. – B. 250.